# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

# GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

*Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal*

2026-YIL / SENTABR / 9-SON, I-QISM



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.*
*I-qism*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko'nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li,** O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
**Utayev Uktam Choriyevich,** Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li,** TDIU katta o'qituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli,** Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Prosecutor of Anijan Region
**Ochilov Farkhod,** Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISH VA BAHOLASHNING XORIJIY TAJRIBASI ......34
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna
BREND POZITSIYALASH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHDA BOZOR TADQIQOTLARI METODIKASI ......41
Jumayeva Zulfiya Qayumovna
GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIKNING O'ZBEKISTON MILLIY VALYUTASI BARQARORLIGIGA TA'SIRI ......46
Davlatova Nilufar Avazovna
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGI: MANZILLI SAMARADORLIK INDEKSI (MSI) ASOSIDA BANDLIK DASTURLARINI BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA) ......50
Eshmurodov Adhamjon Rahmonjonovich
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ ООО «SAM PULSAR DISTRIBUTORS» ......61
Мусаева Шоира Азимовна
KICHIK BIZNESDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI ......68
Tukhtasinova Intizorkhon Sherzod qizi
GLOBALLASHUV DAVRIDA JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'ZGARISHLARNING YANGI O'ZBEKISTONGA TA'SIRI ......73
Jahongir Nurulloyevich Jurayev
YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI ......77
Nasulloeva Oydinoy Saidovna
ПРИВЛЕЧЕНИЕ МОЛОДЁЖИ К ЭКСПОРТУ ЦИФРОВЫХ УСЛУГ: МЕХАНИЗМ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ......82
Палвонова Севара Бахромовна
MINTAQA IQTISODIYOTINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHDA IT-PARKLARNING NAZARIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI ......94
Sultanova Zuxra Jaksilikovna
INSON KAPITALINING KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI ......99
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich
Dilmurodov Komiljon Ahmad o'g'li
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI MONITORING QILISHNING INTEGRATSIYALASHGAN UZEMS MODELI ......103
Bobobekov Ergash Abdumalikovich
AUDIT JARAYONIDA MOLIYAVIY FIRIBGARLIK BELGILARINI ANIQLASHNING TAHLILIY TARTIB-TAOMILLARINI TAKOMILLASHTIRISH ......108
Xusanov Shuxrat Burxanovich
FROM AUTOMATION TO STANDARDIZATION: OPERATIONS MANAGEMENT CHALLENGES IN UZBEKISTAN'S HOSPITALITY SECTOR ......115
Asal Kadirova
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ ......125
Нигматова Сугдиена Жалолиддин кизи

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

SANOAT 4.0 TEXNOLOGIYALARINING RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI VA UZOQ MUDDATLI IQTISODIY O‘SISHDAGI ROLI ........ 131

Komilova Dilafruz Rustam qizi

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAISHIY XIZMAT KO‘RSATISH TARMOG‘INI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI ........ 137

Samiyeva Gulnoza Toxirovna
O‘taganov Fazliddin Isroil o‘g‘li

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAISHIY XIZMAT KO‘RSATISH TARMOG‘INI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI



**Samiyeva Gulnoza Toxirovna**
Qarshi davlat texnika universiteti
“Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi
dotsenti, PhD
Email: samiyevagulnoza@gmail.com
ORCID: 0009-0003-3192-3887



**O‘taganov Fazliddin Isroil o‘g‘li**
Qashqadaryo viloyati hokimligi
Axborot-tahlil guruhi bosh
mutaxassisi, tadqiqotchi
Email: utaganov.fazliddin86@gmail.com
ORCID: 0009-0008-7285-9646

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada aholiga maishiy xizmatlar ko‘rsatish sohasining hozirgi iqtisodiy sharoitdagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘rni hamda ushbu yo‘nalishni rivojlantirishning dolzarbligi yoritilgan. Globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi, raqobatning kuchayishi, aholining daromadlari va turli ehtiyojlarining kengayib borishi sharoitida maishiy xizmatlarning aholi hayot sifati, bandlik darajasi hamda vaqt resurslaridan oqilona foydalanishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, maishiy xizmatlarning iqtisodiy mazmuni, bajaradigan asosiy vazifalari va xizmatlar bozoridagi mavqei ochib berilgan. O‘zbekistonda mazkur faoliyat yo‘nalishining rivojlanishini ta’minlovchi institutsional mexanizmlar hamda me’yoriy-huquqiy asoslar ham ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirish aholi farovonligini yuksaltirish, qo‘shimcha bandlik imkoniyatlarini shakllantirish, tadbirkorlikni rag‘batlantirish va hududlarning barqaror iqtisodiy taraqqiyotiga erishishda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** maishiy xizmatlar, xizmat ko‘rsatish sohasi, xizmatlar bozori, hayot sifati, aholi bandligi, tadbirkorlik faoliyati, aholi farovonligi, xizmat ko‘rsatish sifati, hududiy taraqqiyot.

**Abstract:** This article explores the socio-economic role of the household services sector in the contemporary economy and highlights the growing need to promote its further development. The study assesses the contribution of household services to living conditions, employment opportunities, and the rational use of household time in the context of globalization, increasing market competition, and the expansion of population needs and preferences. The paper further examines the economic essence of household services, their principal functions, and their position within the broader service market. In addition, attention is given to the institutional arrangements and regulatory framework shaping the development of household services in Uzbekistan. The results demonstrate that strengthening the household services sector can contribute significantly to enhancing population welfare, generating additional employment, encouraging entrepreneurial initiatives, and fostering balanced and sustainable economic development across regions.

**Keywords:** household services, service industry, service market, quality of life, employment, entrepreneurial activity, population welfare, service quality, regional development.

**Аннотация:** В статье раскрывается социально-экономическая роль сферы бытового обслуживания населения в современной экономике и обосновывается актуальность ее дальнейшего развития. Рассматривается значение бытовых услуг в повышении качества жизни населения, расширении возможностей занятости и рациональном использовании временных ресурсов домашних

хозяйств в условиях глобализационных процессов, усиления рыночной конкуренции и расширения потребительских запросов населения. Раскрываются экономическое содержание бытовых услуг, их ключевые функции и место в структуре современного рынка услуг. Кроме того, рассматриваются институциональные механизмы и нормативно-правовые основы, регулирующие развитие сферы бытового обслуживания в Узбекистане. Полученные результаты свидетельствуют о том, что совершенствование сферы бытовых услуг способствует повышению благосостояния населения, созданию дополнительных рабочих мест, активизации предпринимательства и обеспечению устойчивого социально-экономического развития регионов.

**Ключевые слова:** бытовое обслуживание, сфера услуг, рынок услуг, качество жизни, занятость населения, предпринимательская деятельность, благосостояние населения, качество обслуживания, региональное развитие.

## KIRISH

Jahonning taraqqiy etgan mamlakatlarida globallashuv jarayoni hamda uning xizmatlar bozori shakllanishi va rivojlanishiga bo‘lgan ta’siridan kelib chiqqan holda qator muammolarning ilmiy yechimini ta’minlash yuzasidan maqsadli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, xizmatlar bozori egiluvchanligi, institusionallashuvi va ijtimoiylashuvining kuchayishi, xizmatlar bozoridagi raqobat, yuqori ta’lim va kasb darajasini talab qiluvchi yangi faoliyat turlarining rivojlanishi, ish vaqti yangi modellaridan foydalanish, ishlovchilar daromadlarining ko‘payishi, milliy mehnat bozori hamda transmilliy kompaniyalar va Xalqaro mehnat tashkiloti o‘zaro faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlarga alohida e’tibor qaratilgan.

Jahonda globallashuv jarayonining chuqurlashuvi, raqobatning keskinlashuvi, ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish darajasini oshirishda sifat ko‘rsatkichlarining ustuvorligi sharoitida xizmat ko‘rsatish, jumladan, maishiy xizmat ko‘rsatish sohalarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati tobora ortib bormoqda. Mazkur sohalar rivojlanishiga bo‘lgan obyektiv zarurat aholi turmush darajasi sifatini yuksaltirishi bilan bir qatorda, ish bilan bandlik darajasining ortishiga ijobiy ta’siri bilan ham izohlanadi. “Rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko‘rsatish sohasi yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 75 foiz va ish bilan bandlar salmog‘i 70 foizdan ortiqni tashkil etmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlarining xizmat ko‘rsatish sohasida bandlik Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida 75, AQShda 80, Yaponiyada 82 foizdan ortadi»[1]. Aynan shu nuqtai nazardan, jahon miqyosida xizmatlar sohasini rivojlantirish, xizmatlar hajmi va sifatini oshirgan holda, xizmatlarning zamonaviy turlarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maishiy xizmat sohasining shakllanishi va rivojlanishi ko‘pgina olimlarning asarlarida tadqiq etilgan. Jumladan, J.M. Keyns, M.Ye. Porter, M.R. Kramer, Y.A. Shumpeter, T. Sakaiya, K.X. Xaksever, B.R. Render, R.S. Rassel, R.G. Merdik va boshqalar tomonidan ilmiy-metodologik jihatlari tadqiq qilingan [1, 2, 3]. MDH mamlakatlarida esa maishiy xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanishining nazariy va uslubiy jihatlari V.M. Vlasova, N.A. Baturina, L. Pashkevich, D.R. Gibadullina, D.G. Demyanov, A.D. Domnin, Ye.Yu. Zayas, M.S. Yegorixina, Ye.A. Shamin, O.Yu. Rudakova va boshqa olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan [4, 5, 6].

Xizmat ko‘rsatish va servis sohasi, shuningdek, maishiy xizmatlar bozorining rivojlanish muammolari xususida respublikamiz iqtisodchi olimlaridan M.E. Po‘latov, M.Q. Pardayev, M.M. Muxammedov, D.R. Zaynalov, Q.J. Mirzayev, D.X. Aslanova, B.A. Abdukarimov, A.M. Saidov, J.I. Isroilov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar [7, 8, 9].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli, statistik, qiyosiy taqqoslash va dinamik tahlil usullaridan foydalanildi. 2021–2025-yillardagi xizmatlar dinamikasi o‘rganildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda respublikamizda xizmatlar sohasini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirishga quyidagi tashkiliy-iqtisodiy imkoniyatlar xizmat qilmoqda:

– xizmatlar sohasini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashning izchil rivojlanib borayotganligi;

1 http://www.worldbank.org/eca/russian/data/

– xizmatlar sohasi va bozorini rivojlantirish hamda samaradorligini oshirish bo‘yicha aniq innovatsion yo‘nalishlarning belgilab olinayotganligi;

– xizmatlar sohasini rivojlantirishda turli tashqi omillar (tabiiy ofatlar, kasallik va pandemiya oqibatlari) ta’sirlarining hududlarda yetarli darajada hisobga olinayotganligi;

– xizmatlar sohasini rivojlantirish jarayonlari va chora-tadbirlarida raqamli iqtisodiyot talablariga mos tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning takomillashtirib borilayotganligi;

– xizmatlar sohasini rivojlantirishda jahon tajribasi, ayniqsa, industrial rivojlangan xorijiy davlatlarda erishilgan ilg‘or yutuqlardan respublika va uning hududlarida samarali foydalanilayotganligi;

– xizmatlar sohasini rivojlantirishda innovatsiyaning keng qo‘llanilayotganligi, ayniqsa, kelajak xizmatlari, yangilikka asoslangan xizmatlar bo‘yicha tizimli ishlarning yo‘lga qo‘yilayotganligi va h.k. (1-jadval) [10].

1-jadval.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasi asosiy ko‘rsatkichlarining o‘sish sur’atlari[2]

| Ko‘rsatkichlar nomi | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 | 2025-yilda 2021-yilga nisbatan, %da |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Mamlakat YAIMda xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi, % | 38,6 | 41,5 | 46,2 | 47,4 | 48,6 | **125,9** |
| Jami ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, trln so‘m | 389,4 | 509,6 | 664,8 | 840,1 | 1050,3 | **269,7** |
| Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, mln so‘m | 11,2 | 14,3 | 18,3 | 22,6 | 27,7 | **248,6** |

1-jadval ma’lumotlari 2021–2025-yillarda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasining barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Xizmatlarning YAIMdagi ulushi 38,6 foizdan 48,6 foizga, jami ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi esa 389,4 trln so‘mdan 1050,3 trln so‘mga yetgan. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan xizmatlar hajmi 11,2 mln so‘mdan 27,7 mln so‘mga oshib, 2025-yilda 2021-yilga nisbatan 248,6 foizni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkichlar xizmatlar sohasining iqtisodiyotdagi ahamiyati ortib borayotganini va aholi ehtiyojlarini qondirishda uning roli kuchayganini ko‘rsatadi (2-jadval).

2-jadval.

O‘zbekistonda iqtisodiy faoliyatning asosiy turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining o‘zgarishi, trln. so‘m[3]

| Xizmatlar turi | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 | 2025-yil 2021-yilga nisbatan, %da |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Xizmatlar, jami** | 389,4 | 509,6 | 664,8 | 840,1 | 1050,3 | **269,7** |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 20,4 | 27,9 | 39,7 | 56,9 | 79,5 | **390,5** |
| Moliyaviy xizmatlar | 60,1 | 81,4 | 108,0 | 135,8 | 171,9 | **285,8** |
| Transport xizmatlari | 74,7 | 92,3 | 118,3 | 151,8 | 188,3 | **252,0** |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 71,8 | 107,6 | 145,8 | 183,9 | 227,0 | **316,1** |
| Savdo xizmatlari | 85,8 | 103,5 | 128,8 | 155,0 | 187,0 | **218,0** |
| Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar | 10,9 | 13,0 | 16,6 | 20,9 | 25,9 | **237,1** |
| Ta’lim sohasidagi xizmatlar | 15,8 | 20,6 | 25,8 | 32,1 | 39,6 | **251,3** |
| Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar | 7,9 | 10,2 | 13,0 | 16,0 | 19,9 | **252,2** |
| Ijara va lizing bo‘yicha xizmatlar | 5,6 | 6,8 | 7,8 | 9,9 | 12,8 | **228,8** |
| Kompyuterlar, shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar | 6,3 | 7,7 | 9,5 | 11,7 | 14,4 | **227,5** |
| Shaxsiy xizmatlar | 7,5 | 9,6 | 12,1 | 15,6 | 19,9 | **264,5** |
| Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 6,6 | 7,7 | 8,9 | 10,6 | 13,1 | **197,0** |
| Boshqa xizmatlar | 16,0 | 21,4 | 30,5 | 40,0 | 51,2 | **320,4** |

2 O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

3 O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

2-jadval ma'lumotlari 2021–2025-yillarda O'zbekistonda iqtisodiy faoliyatning asosiy turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi barqaror o'sganini ko'rsatadi. Xizmatlar jami hajmi 2021-yildagi 389,4 trln so'mdan 2025-yilda 1050,3 trln so'mga yetgan bo'lib, o'sish 269,7 foizni tashkil etgan. Ayniqsa, axborot va aloqa xizmatlari 390,5 foiz, yashash va ovqatlanish xizmatlari 316,1 foiz, boshqa xizmatlar 320,4 foizga o'sib, eng yuqori dinamikani namoyon etgan. Maishiy xizmatlarga yaqin bo'lgan kompyuterlar, shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari 227,5 foiz, shaxsiy xizmatlar esa 264,5 foizga oshgani ushbu sohaning ham izchil rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, uning rivojlanish darajasi hududlar kesimida keskin farq qiladi. Shuningdek, respublikada xizmat turlari bo'yicha transport va savdo xizmatlari kabi an'anaviy xizmat turlari ustunlik qiladi [11]. Shuning uchun, rivojlangan davlatlar tajribalaridan kelib chiqib, mamlakatda xizmat ko'rsatishning yuqori texnologiyalarga asoslangan axborot va aloqa, biznes, sug'urta, moliya va boshqa turlarini rivojlantirish, xizmat ko'rsatish korxonalarining innovatsion faolligini oshirish maqsadga muvofiqdir [12].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarida investitsiya faoliyatini amalga oshirish bo'yicha qabul qilinayotgan dasturlar va chora-tadbirlar uning samaradorligini oshishiga xizmat qilmoqda. Mazkur holat alohida korxonalar va uning tarmoqlarida qo'yilgan maqsadlarga belgilangan vaqtda erishish shart-sharoitlarini yaxshilaydi. Bundan esa, xizmat ko'rsatish sohasini iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan alohida o'ziga xos jihatlarga egaligidan dalolat beradi.

Bizningcha, yurtimizda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish quyidagi yo'nalishlarda bo'lishi maqsadga muvofiqdir:

– xizmatlar ko'rsatish sohasi tarmoqlarida tadbirkorlik faolligini oshirish yuzasidan optimal shart-sharoitlarni yaratish, xususan, ushbu yo'nalishda hududlarning rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqib, istiqbolli dasturlarni realizatsiya qilish;

– sohada moliya-bank, aholiga transport xizmatlari, qurilish, axborot, tibbiy va kommunal xizmatlar, shuningdek, qishloq hududlarida xizmatning an'anaviy turlari, agroturizmni rivojlantirishning istiqbolli rejasini ishlab chiqish. Shuningdek, transport, turizm va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini rivojlantirish;

– xizmat ko'rsatish sohasida ko'rsatilayotgan xizmatlar turlarini diversifikatsiyalash asosida ularning hajmini oshirish va sifatini yaxshilash, xizmatlar turlarini diversifikatsiyalash;

– qishloq joylarda servis faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish, xususan, agroturizm, qishloq aholisiga ko'rsatiladigan kommunal, maishiy, suvdan foydalanish, uy-joylarni ta'mirlash va qurish, veterinariya, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash va ularni qadoqlash kabi xizmatlar turlarini kengaytirish;

– respublikada an'anaviy xizmat turlarini rivojlantirish, ayrim unutib ketilgan milliy hunarmandchilikka oid xizmat turlarini qayta tiklash;

– xizmatlarning zamonaviy turlarini, xususan, yuridik, konsalting, bank, moliya, sug'urta, lizing, raqamli xizmatlar ko'rsatish kabilarni jadal rivojlantirish;

– respublikaning xizmatlar eksportini oshirish uchun mazkur soha korxonalarining jahon bozoridagi xizmatlar miqdori va sifatini yaxshilash;

– mutaxassis-kadrlarni tayyorlash, kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularni kasbga qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish bo'yicha korxonalar tomonidan o'quv yurtlariga buyurtmalarni shakllantirish [13].

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. с англ. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – М.: МИЭМП, 2010; Sakaiya, T. The Knowledge-Value Revolution or A History of the Future. Tokyo-N.Y., 1991;
2. Porter M.E., Kramer M.R. Strategy and Society: The Link Between Competitive Advantage and Corporate Social Responsibility// Harvard Business Review. 2006, December, pp. 78-92; *Шумпетер Й.* Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия / Й. Шумпетер: пер. с англ. В.С. Автономова. – М.: ЭКСМО, 2007. – 864 с.;
3. Управление и организация в сфере услуг: теория и практика: Service Management and Operation – 2-е межд.изд./ К.Х.Хаксевер, Б.Р.Рендер, Р.С.Рассел, Р.Г.Мердик. – СПб, 2002. – 751 с.
4. Власова М.В., Батурина Н.А., Пашкевич Л.А. Мониторинг ассортимента и качества услуг на потребительском рынке//ОрелГИЭТ. 2020. № 1 (51). – С. 109-114; Гибадуллина Д.Р., «Развитие сфер бытового обслуживания в России» Проблемы социально-экономической устойчивости региона. 2020. С. 74-77;

5. Демьянов Д.Г. Моделирование территориального развития сферы бытовых услуг // Вестник Пермского университета. Экономика. 2014. № 3; Домнин А.Д. Анализ подходов к оценке качества на предприятиях по оказанию бытовых услуг населению // Российский экономический интер.-журн. 2019. № 4.–С.50;
6. Заяц Е.Ю. Совершенствование оценки качества обслуживания на предприятиях сферы бытовых услуг//2014; Егорихина М.С., Шамин Е.А. Особенности развития современного рынка бытовых услуг//Азимут научных исследований: экономика и управление. 2018. № 2 (23) (7).
7. Пардаев М.Қ., Исроилов Ж.И., Ғаппаров А.Қ. Хизмат кўрсатиш соҳасида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш муаммолари. Рисола. Самарқанд. «Зарафшон», 2009. - 66 б.; Асланова Д.Х. Трудоёмкость продукции обшественного питания и резеры её снижения: автореферат диссертации. - Киев. 1992 – С. 20;
8. Пўлатов М.Э., Мирзаев Қ.Ж., Султонов Ш.А., Шавқиев Э. Глобал иқтисодий ривожланиш (туризм иқтисодиёти).Ўқув қўлланма.Т.: Фан ва технология, 2018. − 296 б.; Мухаммедов М.М. и др. Экономика торговли. Самарқанд.1998.с.282; Зайналов Д.Р. Услуги и сервис как экономическая категория. // «Сервис» жур. Самарканд: 2009, 1-сон. 70-77 бетлар.;
9. Саидов А.М. Маиший хизмат кўрсатиш корхоналарида меҳнатни ташкил қилишни такомиллаштириш йўллари. И.ф.н. дисс. – Самарқанд. СамИСИ. 2011
10. Самиева Г. Т. Анализ Бытового Обслуживания В Республике Узбекистан //Miasto Przyszłości. – 2024. – Т. 51. – С. 167-171.
11. Saidxodjayev A. et al. Problems of power supply to residential and public consumers in cities of Uzbekistan //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2024. – Т. 3152. – №. 1. – С. 030029.
12. Самиева Г. Т. ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В ПОВЫШЕНИИ БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАСЕЛЕНИЯ // Экономика и социум. 2024. №2-1 (117). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/voprosy-razvitiya-sotsialnoy-infrastruktury-v-povyshenii-blagosostoyaniya-naseleniya.
13. Хамраева С. Н., Самиева Г. Т. Ижтимоий соҳа иқтисодиёти. Дарслик. – 2022.

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 9/1**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz